

**JAHON SAVDO TASHKILOTINING XALQARO SAVDODAGI  
O‘RNI VA AHAMIYATI**

*Sapayev Elbek Kamilovich*

*O‘zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi  
magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Xalqaro savdoda ayrim tovarlarning raqobatbardoshligi bozorning o‘zgarishi yoki ancha arzon va sifatli tovarlar ishlab chiquvchi yuksak texnologiyalarning joriy etilishi natijasida bir kompaniyadan ikkinchi kompaniyaga o‘tishi mumkin. Tarix va kuzatishlar ko‘rsatmoqdaki, imkoniyatlarga ega ayrim mamlakatlar, aytaylik mehnat (ishchi) kuchi yoki tabiiy zaxiralarga sarf-xarajat borasida, iqtisodiyotdagi o‘ziga xos taraqqiyot tufayli ayrim tovar va xizmatlar borasida noraqobatbardosh bo‘lib qolishlari mumkin. Biroq, ochiq iqtisodiyot ta‘sirida ular boshqa sohalarda raqobatbardosh bo‘lib qolishlari mumkin.

**Kalit so‘zlar:** valyuta, eksport, import, tashqi iqtisodiy faoliyat, byudjet, tadbirkorlik faoliyati, birja savdolari.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlarning shakllanish va rivojlanish tajribasi davlatning faol muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi rolisiz samarali tashqi iqtisodiy strategiyani amalga oshirish mumkin emasligini tasdiqlamoqda. Milliy bozor va mahalliy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish va iqtisodiyotning ochiqligini ta‘minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Iqtisodiyot sohasida o‘zaro munosabatlar va hamkorlik jarayonlarining kengayishi xalqaro savdoning umumiy normalari va qoidalari ishlab chiqilishiga va ixtisoslashtirilgan tashkilotlarining tuzilishiga olib keldi. Jumladan Jahon savdo tashkiloti ko‘p taraflama savdo tizimining huquqiy va institutsional asosini ta‘minlovchi, xalqaro savdoning deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan yirik xalqaro muassasa hisoblanadi.

Xususan, jahon iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlarni tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi savdoni erkinlashtirish jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biriga aylanmoqda. Barcha mamlakatlarda bojxona bojarining pasayishi, ko‘plab turdagi cheklashlarning bekor qilinishi kuzatilmoqda. Ko‘plab mamlakatlar yashirincha proteksionistik (davlatning o‘zini ichki bozorini himoya qilish siyosati) chora-tadbirlardan ham keng foydalanadilar. Bunday chora-tadbirlar jumlasiga milliy ishlab chiqarish turlariga dotatsiyalar berish, eksportni subsidiyalash, turli xil me‘yorlar va standartlar joriy qilish va boshqalarni kiritish mumkin.

Jahon xo‘jaligida erkin savdo va proteksionizm o‘rtasida vujudga kelayotgan ziddiyatlarni hal etishda, xalqaro savdoni boshqarish, uning taraqqiyotiga bo‘lgan

to'siqlarni yo'q qilish va erkinlashtirishida Jahon savdo tashkiloti muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz avvalo iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish borasidagi ishlarimizni yanada chuqurlashtirish, uning soha va tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish bo'yicha boshlangan ishlarni jadallashtirishimiz kerak".

Hozirga kunda, O'zbekiston Respublikasi oldida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish muhim vazifa sanalmoqda. Ayni paytda, mamlakat bu boradagi muzokaralarni faollashtirishga kirishish bosqichida bo'lib ushbu tashkilotga kirishning asosiy shartlaridan biri esa tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) ni boshqarishda tarif stavkalarini pasaytirish talab qilinadi.

Shu sababli, davlat tomonidan boj-tarif siyosatini isloh qilish hozirgi kun talabi bo'lib qolmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda JSTga a'zo bo'lish muammolarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu borada O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo sifatida kirishi yuzasidan muzokaralarni faollashtirish yuzasidan 2018-yilda Tashqi savdo, Moliya va Iqtisodiyot vazirligidan iborat tarkibda ishchi guruh tuzilib, 34 banddan iborat "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tanlangan mavzuning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-birinchidan, 2022 – 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish belgilanganligi;

-ikkinchidan, O'zbekistonda tashqi savdo balansini Jahon savdo tashkiloti talablariga a'zo bo'lish jarayonida milliy iqtisodiyot manfaatlarini hisobga olgan holda muvozanatlashtirish zaruriyati;

-uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo balansini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga bo'lgan zarurat.

Tadqiqot davomida tizimli tahlil asosida tashqi savdo balansini samaradorligi baholandi va tizimlashtirildi. Shuningdek, statistik analiz va sintez usuli asosida davlatlarning eksport kvotasini tashqi savdo balansini ko'rsatkichlariga bog'lagan holda baholashning chegaraviy qiymati belgilandi. Tashqi savdo balansini baholashning mazkur chegaraviy qiymati asosida O'zbekistondagi mavjud holat yillar kesimida qiyosiy tahlil qilindi

Tashqi savdo balansini samaradorligini baholaganda mamlakatdagi barcha soha va tarmoqlardagi mavjud ko'rsatkichlar inobatga olinadi. Shunga ko'ra, tashqi savdo balansining samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlarning holatiga bog'liq bo'ladi:

– tashqi savdo ko'rsatkichi. Bunga tashqi savdo aylanmasi va tashqi savdo

balansining YAIMdagi ulushi, eksport kvotasi, import kvotasi, tashqi bozorda milliy mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasi kabilar;

– ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkich. Aholining minimal ehtiyojlarini ta‘minlash darajasi, iste‘mol narxlari indeksi, importning jami iste‘moldagi ulushi kabilar;

– iqtisodiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari. Korxonalar tashqi savdosidan tushgan foyda, rentabellik, eksport hajmi, mahsulot ishlab chiqarish quvvati, korxonaning tashqi savdodagi barqaror faoliyati kabilar;

– ekologik ko‘rsatkichlar. Mahsulot sifat darajasi, mahsulot ishlab chiqarish va saqlashning ekologik xavfsizligi, eksport va importning mavsumiy o‘zgarish darajasi kabilar.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida tashqi savdo balansini baholashda ochiq va yopiq iqtisodiyot deb nomlanuvchi usuldan foydalanilmoqda. Ushbu uslub milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga qay darajada bog‘liqligini ko‘rsatuvchi indikator hisoblanadi. Yopiq iqtisodiyot bilan bog‘liq tashqi iqtisodiy faoliyatda eksportning YAIMdagi ulushi 10%dan kam bo‘ladi. Ochiq iqtisodiyotda esa eksportning YAIMdagi ulushi 35%dan ortiq bo‘ladi.

Ushbu mezonga ko‘ra, 2017-yil ochiq iqtisodiyot bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga – Gonkong (157%), Singapur (96,3%), Vyetnam (90,5%), Slovakiya (84,2%), BAA kabi davlatlar kirsa, yopiq iqtisodiyot bo‘yicha esa eng past ko‘rsatkich Yaman (1,3 %), Nepal (3,37 %), Sudan (3,37 %) kabi davlatlarda kuzatildi.

Bundan tashqari, jahon davlatlarining ochiq iqtisodiyot asosida tashqi savdo siyosatini olib borishi mamlakat savdo balansiga bog‘langan holda tahlil etildi. Unga ko‘ra, 49 mamlakat tashqi savdosida ochiq iqtisodiyot olib borishi va ulardan 17 tasi (36,9 %)da salbiy saldo holati kuzatilgan.

Shuningdek, YAIMda eksport ulushi 10 va 35 foiz oralig‘ida bo‘lgan, kombinatsiyalashgan ochiq va yopiq iqtisodiyot bilan bog‘liq tashqi savdo siyosati 110 ta davlatda kuzatilgan bo‘lib, ularning 81 tasi (73,6 %)da salbiy saldo holati qayd etilgan. Shu bilan birga, eksportning YAIMdagi ulushi 10%dan kam bo‘lgan mamlakatlar soni 46 ta ekani va ularning hech birida ijobiy saldo holati kuzatilmaganligi aniqlandi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqqan holda, tashqi savdo balansidagi salbiy saldo holatini baholashda quyidagicha chegaraviy qiymat belgilash mumkin.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan mamlakat tashqi savdo siyosatining tasnifi bevosita eksport kvotasi, ya‘ni eksportning YAIMdagi ulushiga bog‘liq ekanligini ko‘rish mumkin. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston tashqi savdo siyosati tasnifi o‘rganilganida 1-jadvaldagi kabi holatlar aniqlandi.

**O‘zbekistonda eksport kvotasi va savdo balansining o‘zgarish dinamikasi  
(mlrd. AQSH dollarda)**

	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
<b>YaIM</b>	46,2	52,1	57,7	63,1	66,9	67,4	49,7	49,7
<b>Eksport</b>	6,948	6,598	8,634	7,205	6,450	7,627	8,719	9,669
<b>Eksport kvotasi</b>	15,1	12,7	15,0	11,4	9,6	11,3	17,6	19,5
<b>Tashqi savdo balansida saldo</b>	-2,818	-4,454	-4,341	-6,481	-4,220	-2,187	-3,333	-7,540

Ushbu jadvaldan ko‘rish mumkinki, 2018-yil YAIM 2001-yilga nisbatan 5,3 barobarga, eksport esa 4,2-marta ko‘paygan. Shuningdek, eksport kvotasining ko‘rsatkichlaridan yaqin 20 yil davomida O‘zbekistonda asosan kombinatsiyalashgan ochiq va yopiq iqtisodiyot bilan bog‘liq tashqi savdo siyosati olib borilganligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, eksport kvotasini tashqi savdo balansiga bog‘lagan holda baholangan chegaraviy qiymati bo‘yicha inqirozoldi holatda ekanligi aniqlandi.

Shunga ko‘ra, eksport kvotasi 2001-yildan 2008-yilgacha 23% dan 30% gacha o‘shish holati kuzatilgan bo‘lib, unga mos ravishda savdo balansi ham 220 mln. dollardan 1,42 mlrd. dollargacha o‘sgan holda ijobiy saldogga erishilgan. 2009-yildan boshlab esa eksport kvotasi 17% dan 9% gacha keskin tushish dinamikasini ko‘rish mumkin va savdo balansi ham shunga mos ravishda 520 mln. dollardan 2014-yilda 6,46 mlrd. dollargacha, 2018-yilga kelib esa 7,54 mlrd. dollargacha salbiy saldo holatining o‘shishi kuzatilgan. Demak, bundan mamlakatdagi eksport kvotasi va savdo balansining o‘zgarish dinamikasi bir-biriga bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ladi .

Shunday ekan, ijobiy saldogga erishish uchun mamlakatda eksport samaradorligi yuqori bo‘lishi kerak. Eksport samaradorligi esa quyidagi baholash mezonlari tizimi orqali belgilanadi:

1. Eksport hajmining o‘zgarish dinamikasi:
  - eksportning davriy o‘zgarishi (dinamikasi) va uning YAIMdagi ulushi;
  - eksport hajmining sohalar va tovar guruhlari bo‘yicha o‘zgarishi (qandaydir real vaqt oralig‘ida).
2. Eksport tovarlarining raqobatbardoshligi va innovatsion yangiligi:
  - jahon bozorida eksport ulushining dinamikasi;
  - eksport mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarining savdo brendiga xorijiy talabning o‘rni va darajasi;

- eksport mahsulotining innovatsion yangiligi.
- 3. Xom ashyo eksporti va importiga qaramlilik darajasi:
  - jami eksport tarkibida xom ashyo ulushi;
  - jami importda xom ashyo ulushi;
  - mamlakatning o‘zini-o‘zi xom ashyo bilan ta’minlaganlik darajasi;
  - mamlakatda ishlab chiqariladigan xom ashyo turlari importining jami xom ashyo importidagi ulushi;
  - eksport va import xom ashyo narxlarining o‘zgarish dinamikasi.
- 4. Eksportning mamlakatlar kesimida o‘zgarish dinamikasi:
  - qo‘shni davlatlar bilan amalga oshirilgan eksport qiymatini mamlakatning jami eksportidagi ulushi;
  - eksport mamlakatlarning diversifikatsiyalashganlik darajasi.

Shu o‘rinda, yuqorida ko‘rsatilgan indikatorlarni hisoblab chiqishning tashqi savdo balansini baholashdagi ahamiyatini e’tirof etgan holda, olingan ko‘rsatkichlarni ijobiy yoki salbiy ekanligini aniqlashda har bir mezon bo‘yicha chegaraviy qiymatni o‘rnatish muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi indikatorlar va chegaraviy qiymatlardan shuni xulosa qilish mumkinki, eksportning YaIMdagi ulushi qanchalik ko‘p bo‘lsa, mamlakatning tashqi savdo balansida ijobiy saldoga erishish ehtimoli shuncha yuqori bo‘ladi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda eksportning YaIMdagi ulushi so‘nggi 10 yil davomida 20% dan oshmagan. Natijada, O‘zbekiston tashqi savdo balansida muntazam ravishda salbiy saldo holati kuzatilgan. Mazkur holat esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bir qator tahdidlarni yuzaga keltiradi. Shunday ekan, bugungi kunda O‘zbekistonning ochiq iqtisodiyotga asoslangan tashqi savdo siyosatini olib borish orqali eksportning YaIMdagi ulushini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. 08.12.1992-y. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/>
2. O.Sh.Dadabayev, S.S.Soatov, A.M.Sagitov. Bojxona statistikasi va tizimli tahlil. Darslik. Toshkent: BI, 2020-y. - 296 b.
3. Системный анализ и аналитический исследовательский процесс: руководство для профессиональных аналитиков / A.I. RAKITOV, D.A. BONDYAYEV, I.B. ROMANOV, SV. YEGEREV, A.Yu. IJERBAKOV; [OTV. red. A.I. RAKITOV]. - M., 2009. - 448 s.
4. MDHga a‘zo davlatlar Bojxona xizmatlari rahbarlari kengashining 2011 yil 9-iyundagi 53-yig‘ilishida tasdiqlangan “O‘zaro savdo bojxona statistikasi ma‘lumotlarini solishtirishda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar bojxona xizmatlarining o‘zaro hamkorligi tartibi to‘g‘risidagi bayonnoma”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-sonli Farmoni.